

Date: 9th January-2025

SAYYORA SAMANDAROVA SHE'RIYATI BADIYATI ("MATONATLI
MARYAM QISSASI" SHE'RI MISOLIDA)

Ro'zimova Sabxon

Urganch davlat universiteti magistratura talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qalami o'tkir, iste'dodli shoira Sayyora Samandarovanning ijod gulshanidan o'rin egallagan "Matonatli Maryam qissasi" she'ri tahlilga tortiladi. She'ring o'ziga xos badiiy ifodasi xususida so'z yuritiladi.

Аннотация. В данной статье будут проанализированы "Matonatli Maryam qissasi", которым есть место в творчестве талантливой поэтессы Сайёры Самандаровой. Обсуждается специфика художественной выразительности стихотворения.

Abstract. This article analyzes the poem "Matonatli Maryam qissasi", which is part of the creative bouquet of Sayyora Samandarova, a talented poet with a sharp pen. The poem's unique artistic expression is discussed.

Kalit so'zlar: she'riyat, uslub, vatanparvarlik, motiv, band, misra

Bashariyat tarixidan ma'lumki, inson qalbi hamisha adabiyot bilan oshno bo'lib kelgan. Adabiyotdan ma'naviy ozuqa olib, badiiy ijod namunalaridan zavqlangan. Bu jarayon, ayniqsa, she'riyat orqali yuzaga chiqqan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Boisi she'riyat inson qalbiga eng tez yo'l topuvchi, uning his-tuyg'ularini junbishga keltiruvchi, dil torlarini mayin ohangga soluvchi, shuningdek, inson ruhiyatining nozik tomonlarini aks ettiruvchi, hayotning murakkab va go'zal jihatlarini ochib beruvchi nafis san'atdir. Unda qo'llaniladigan badiiy ifoda vositalari, ritmik ohang hamda obrazlar inson qalbida go'zallikka bo'lgan intilish hissini uyg'otadi. Bu zavq esa hayotga nisbatan ijodiy, iliq munosabatni shakllantiradi, she'rda ifodalanayotgan inson qadri, sevgi, vatanparvarlik kabi fazilatlar hayotni yanada teranroq anglashga yordam beradi. She'riyat xususida so'z borar ekan yana shuni ham ta'kidlash kerakki, har bir ijod ahlining o'ziga xos uslubi bo'lib, u hamisha she'riyat ixlosmandlarining diqqat markazida bo'lib kelgan. Ana shunday o'ziga xos uslubi orqali bir-biridan go'zal she'rlar yarata olgan shoirlar qatorida Xorazm farzandi, iqtidorli shoira, ko'plab insonlar qalbidan mehr qozona olgan Sayyora Samandarovani ta'kidlamasdan ilojimiz yo'q. Sayyora Samandarova o'zbek she'riyati olamida o'ziga xos uslub, nafis his-tuyg'ulari bilan tanilgan ijodkor hisoblanadi. So'z o'rnida aytish lozimki, "Shoir so'zlarni ruhga aylantiradi, – deydi Jaloliddin Rumi, – uning uslubi – bu ilhomning ovozi".¹ Haqiqatan ham, uning she'rlarida inson qalbinin nozik qirralari sanalmish sevgi, iztirob, sog'inch, umid, mehr-muhabbat yorqin ranglarda aks etishi bilan birgalikda insoniy fazilatlar ulug'lanadi, samimiylik hamda teran fikrlar she'ring asosiy mazmunini tashkil etadi.

Sayyora Samandarova she'riyatida vatanparvarlik, ona yurt, Vatanga sadoqat motivi yetakchilik kasb etadi. Ayniqsa, uning "Matonatli Maryam qissasi" she'ri bunga misoldir.

¹ Jaloliddin Rumi. Ma'naviy masnaviy. – Toshkent: 2021.



Date: 9th January-2025



Muallif ushbu she'rini quyidagi jumlar bilan boshlaydi: “Xorazmning ma’rifatparvar qizi, jurnalist, hamshira, turkistonlik jadidlarning tashabbusi bilan 1922-yilda Germaniyada o‘qishga yuborilib, o‘qishdan qaytgach, 1937-yilda Vatanga xoinlikda, josuslikda ayblanib qamoqqa olingan, surgun qilingan Maryam Sultonmurodovaning porloq xotirasiga bag‘ishlanadi”. She’r sarlavhasining o‘ziyoq insonni chuqur mulohazaga tortadi, Maryam ismiga nega aynan “matonatli” ta’rifi keltirilganligi qisman bo‘lsa-da, anglashiladi. Axir, uni boshqacha sifatlar bilan ham ta’riflash mumkin edi-ku?! Yo‘q, shoira o‘sha davrning og‘riqli nuqtalarini qalamga olar ekan bu nihoyatda o‘rinli qo‘llanganligiga tobora amin bo‘lamiz. She’rning birinchi bandini ijodkor Maryamga murojaat bilan boshlaydi:

Maryam, yuragingni nishon olganda,
Nahot senga shuncha zormidi dunyo?
Nozik qo‘llaringga kishan solganda,
Joningga qurilgan dormidi dunyo?²

Misralarni o‘qir ekanmiz, shubhasizki, ko‘z oldimizda foniy dunyoning navbatdagi yana bir begunoh qurboni, nozik qo‘llari bandi qilingan mushtipar ayol siymosi gavdalanadi. Shoira she'rini shunchalik o‘kinch, alam, iztirob, dard bilan boshlaydiki, kitobxon ham bevosita bu jarayonga qo‘shilib, singisha boshlaydi. Maryamga turli xil bo‘hton, ayblovlar qo‘yilib, tuhmat toshlar otilsa ham, dunyoning “qo‘lidan hech narsa kelmadi”. Ro‘y berayotgan razolatlarni bir chekkada jimgina kuzatib turishdan o‘zga chorasi qolmagandi. Abdulla Oripov ta’biri bilan aytganda: “Dunyo bir soqov, so‘zlamaydi hech”.³ Chindan ham, dunyo Maryamning gunohsizligidan, atrofdagi insonlarning qabih niyatidan – baridan xabardor edi, biroq zaboni yo‘qligi bunga imkon bermadi. Natijada, dunyo yana bir ma’rifatli, asl farzandidan ajraldi.

Ko‘ksing tilganida berahm, qattol,
Kamondan otilgan o‘qmidi dunyo?
Sabring sinaganda johil-u battol,
Dilingni bilgani yo‘qmidi dunyo?

O‘sha davrda chirkin tuzumning barq urib, qiyg‘os gullagani hamda Maryamning tobora so‘lib, qovjirab borish holati bir-biriga zid ravishda ifodalangan. Qamoqxonadagi mahbusning so‘lg‘in, tushkun ruhiy holati “qovjirab sarg‘ayding” jumlasini bilan ochiqqlangan. Boisi u hali yosh, hayotdan umidlari ko‘p, Vatanining ravnaqiga hissa qo‘shishni niyat qilgan ziyoli shaxs edi. 1937-1938-yillarda avj olgan qatag‘on siyosati, afsuski, Maryamni ham chetlab o‘tmadi. Qatag‘on siyosatining sovuq nafasi unga ham changal soldi.

Jaholat barq urib gulladi qiyg‘os,
Xazonday qovjirab sarg‘ayding, so‘lding.
Qatag‘on faslida chekkancha uvvos,
O‘ttiz yetinchilar safida bo‘lding.

² Sayyora Samandarova. Mening haqiqatlarim. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2024.

³ Abdulla Oripov. Shoir yuragi. – Toshkent, 2003.

Date: 9th January-2025

Maryam qamoqxonada ancha qiynalgan, unga aynan “matonatli” ta’rifining berilishi ham bejizga emasdir. Ayollar, odatda, ojiza deb qaraladi, biroq Maryam matonat, sabr-toqat, chidam timsolidir. Chunki u o‘zining kichik jussasi bilan shuncha sitamlarga bardosh berdi.

Sen haqda o‘ylasam, o‘ylarim yonar,
Qulog‘imga kelar ingragan tovush.
Jismimni kuydirib tushimga kirar,
Zindonlarda og‘ir sudralgan kovush...

Qatag‘on siyosati insoniyat boshiga ne-ne qora kunlarni solmadi, ne og‘ir sinovlarga duchor qilmadi. Kuch-quvvatga to‘la insonlarning qaddini bukdi, baxtdan porlagan ko‘zlarga chang soldi, hali ona mehriга to‘yib ulgurmagan yosh go‘daklarni esa erta yetim qolishga mahkum qildi. She’ning keyingi misralarini o‘qir ekanmiz, ko‘zimizda yosh tomchilari qalqiy boshlaydi:

Sen-da ona eding, mushtipar eding,
Bag‘ringdan uzdilar nogoh lolangni.
O Maryam, ayt, qanday bardosh berding,
Ayirsalar sendan ikki bolangni?

Maryam ham ona edi, u ham boshqalar singari farzandlarini mehr bilan bag‘riga bosib, kamolini ko‘rish orzusi-la o‘stirayotgan edi... Bil’aks, shafqatsiz zamon buni ko‘p ko‘rdi, murg‘ak qalblarni onadan, onani esa jigargo‘shasidan mosuvo qildi. Bunday ayriliq, shuningdek, bir begunoh insonning o‘n besh yil davomida qamoqda saqlanishi har qanday yuragi qattiq insonning qalbini larzaga keltirishi tayin. Eng alamlisi yillar o‘tib, Maryam nomi oqlandi, chor-atrofga aybsiz ekanligi yoyildi, ammo endi kech edi...

Ellik yettinchi yil. Oqlandi noming,
Biroq qaytarmidi hayoting ortga?
Vujudimni o‘rtab toptalgan shoning,
Tongni qarshi oldim to‘lgancha dardga.

Inson hayoti davomida ko‘pgina qiyinchiliklarga sabr qila oladi, biroq bir insonning o‘n besh yil davomida, turli qiynoqlar ostida qamoqxonada saqlanishi insonni taajjubga soladi, dilini nadomat chulg‘ab oladi.

Xira tortib borar yulduzlar ko‘zi,
Joni chiqar qushdek tipirlar xayol.
Sening bardoshingning ismi ne o‘zi?
O‘n besh yil qamoqda saqlangan ayol???...

Xulosa qilib aytganda, Sayyora Samandarova “Matonatli Maryam qissasi” she’rida ilm-ma’rifatli, haqiqiy o‘zbek ayolining siymosini to‘liq gavdalandira olgan. She’rni o‘qigan har bir insonning ko‘ksida achchiq alam, dard tug‘yon uradi. Unda keltirilgan tasvirlar kishi xayolotini bevosita o‘sha davr tomon olib ketadi. Maryamning jabr-sitamlarga ko‘rsatgan matonati, qahramonligi davrlar o‘tsa-da, dillarda dostonidir. Shoiraning ushbu she’ri sovet davrida nohaq ayblovlarga uchragan, qiynoqlarga duchor bo‘lgan jamiki o‘zbek ayollari nomiga madhiya bo‘lib qoldi desak, hech ham yanglishmagan bo‘lamiz.



Date: 9th January-2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulla Oripov. Shoir yuragi. – Toshkent, 2003.
2. Jaloliddin Rumi. Ma’naviyi masnaviy. – Toshkent, 2021.
3. Sayyora Samandarova. Faqat ishq. – Toshkent, 2024.
4. Sayyora Samandarova. Mening haqiqatlarim. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2024.

